



OPERATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH VAZIFALARINING ASOSIY YO'NALISHLARI

*i.f.n., dots. **Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich***

Namangan muhandislik-texnologiya instituti

ORCID: 0009-0001-8636-1717

baxtiyordedajanov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonalarda operatsion faoliyat va uni boshqarish mazmuni bayon etilgan. Shuningdek, operatsion faoliyatni boshqarishga oid olimlarning yondashuvlari hamda operatsion faoliyatni boshqarish vazifalari yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan. Umumiy xulosalar shakllantirilib, operatsion faoliyatni samarali boshqarish uchun tegishli tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: operatsion faoliyat, operatsion boshqaruv, tashkiliy tizimlar, sifat menejmenti, ishlab chiqarishni joylashtirish, ta'minot zanjirini boshqarish, operatsion tizimni qo'llab-quvvatlash, zaxiralarni boshqarish, moddiy resurslarni rejalashtirish tizimlari.

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЗАДАЧ УПРАВЛЕНИЯ ОПЕРАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ

*к.э.н., доц. **Дедажанов Бахтиёр Набижанович***

Наманганский инженерно-технологический институт

Аннотация. В данной статье описывается содержание операционной деятельности и управления ею на предприятиях. Также указаны подходы ученых к управлению операционной деятельностью, а также направления задач управления операционной деятельностью. Сформулированы общие выводы и даны соответствующие рекомендации по эффективному управлению операционной деятельностью.

Ключевые слова: операционная деятельность, оперативное управление, организационные системы, управление качеством, размещение производства, управление цепочкой поставок, поддержка операционной системы, управление запасами, системы планирования материальных ресурсов.

THE MAIN DIRECTIONS OF THE TASKS OF MANAGING OPERATIONAL ACTIVITIES

*DSc., assoc. prof. **Dedajanov Bahtiyor Nabijanovich***

Namangan Institute of Engineering and Technology

Abstract. This article describes the content of operational activities and their management in enterprises. The approaches of scientists to the management of operational activities are also indicated, as well as the directions of the tasks of managing operational activities. General conclusions are formulated and appropriate recommendations for effective operational management are given.

Keywords: operational activities, operational management, organizational systems, quality management, production placement, supply chain management, operating system support, inventory management, material resource planning systems.

Kirish.

Foyda olish uchun har qanday biznes daromad olish bilan bog'liq barcha jarayonlarni maksimal darajada oshirish va yaxshilashga intiladi. Korxona foydaning katta qismini asosiy faoliyatini amalga oshirish jarayonida oladi. Shuning uchun, asosiy mahsulot yoki xizmatni ishlab chiqarish tsiklining o'zi qanchalik uyg'un bo'lsa, korxona shuncha ko'p daromad oladi. Korxonaning muvaffaqiyatli faoliyati uchta faoliyat turi bo'yicha qabul qilingan samarali boshqaruv qarorlarini amalga oshirish natijasiga: investitsiyalar - birinchi navbatda, asosiy vositalarni yangilashga; moliyaviy - korxonani moliyaviy resurslar bilan ta'minlashga va asosiysi operatsion faoliyatga ya'ni, mahsulot ishlab chiqarish va sotish (xizmatlar ko'rsatish)ga bog'liq.

Operativ faoliyatni oqilona boshqarish nafaqat taktik qarorlar qabul qilishni, balki aniq strategiyani amalga oshirishni ham talab qiladi. Demak bu operatsion menejment doirasidagi bajariladigan chora-tadbirlarni qamrab oladi deya olamiz.

Operatsion menejment – bu biznesni boshqarish tizimi bo'lib, u kompaniyaning ishlab chiqarish faoliyatining to'liq tsiklini boshqarish va tashkil etishni o'z ichiga oladi: tovarlarni yaratishdan tortib xizmatlar ko'rsatishgacha.¹⁴

Operatsion menejment har qanday biznes jarayonlarini xom ashyo, materiallar sotib olishdan, ularni tayyor mahsulotga aylantirishdan xaridorga yetkazib berishgacha bo'lgan jarayonlarni yaxshilash uchun javobgardir.¹⁵

Boshqacha qilib aytganda, operatsion menejment — bu xom ashyoni tayyor mahsulotga yoki xizmatga eng samarali tarzda aylantirish jarayoniga qaratilgan faoliyat. Maqsad minimal investitsiyalar bilan maksimal natijaga erishishdir.

Aynan mana shunday boshqaruv tadbirlari majmui kompaniyaga asosiy ishlab chiqarish faoliyatini yanada samarali olib borishga imkon beradi, bu esa ko'plab raqobatdosh ustunliklarni qo'shadi va maqsadlarga tezroq erishishga yordam beradi.

Shu bilan birga, turli vaqtlarda biznes ichida sodir bo'ladigan ishlab chiqarish va boshqa barcha jarayonlar o'rtasidagi chegarani aniq ko'rish har doim muhimdir.

Adabiyotlar sharhi.

Operatsion menejmentning mustaqil fan sifatida shakllanish tarixi XVIII asr boshlariga to'g'ri keladi. Aynan o'sha paytda samarali iqtisodiyot shakllanadi va mehnat taqsimotining birinchi tamoyillari namoyon bo'ladi.

Vaqt o'tishi bilan, axborot texnologiyalarining rivojlanishi, biznes jarayonlarining o'zgarishi, korxonalar faoliyatida shaxs va inson munosabatlarining roli ortib borishida operatsion boshqaruvning ahamiyati sezilarli darajada oshadi (Fomenko, 2023).

Umarxodjayeva, Ermatov va Sulaymonovlarning (2019) fikricha, "Operatsion faoliyat tashkilotning har qanday funksiyasini amalga oshirishni qat'iylashtiradi, ma'lum mahsulotni ishlab chiqish yoki xizmat ko'rsatish bilan bog'liq maqsadga yo'naltirilgan harakatlar mazmuni va oqibatlariga e'tiborni jamlaydi". Sterligova va Fel (2009) o'z tadqiqotlarida: "Operatsion boshqaruvning asosi operatsion tizimlarni boshqarishdir. Operatsion tizim – bu moddiy, axborot yoki moliyaviy resurslardan ("kirish") foydalanib mahsulot yoki xizmat shaklida ularni natijaga ("chiqish") aylantiradigan tizim ekanligi haqida ta'kidlab o'tadilar.

Pivovarov, Maksimtsev, Rogova va Xutiyevalarning (2011) asarlarida, operatsion menejment – bu mahsulot va xizmatlarning asosiy turlarini ishlab chiqarishga qaratilgan biznes jarayonlarini ishlab chiqish, ulardan foydalanish va takomillashtirish bo'yicha faoliyat. Ishlab chiqarishning asosini tashkilot xodimlari va mijozlari uchun muhim bo'lgan operatsiyalarni boshqarishni tashkil etishning samaradorligi va ratsionalligi tashkil etadi. Operatsiyalar resurslarni mahsulot va xizmatlarga qayta ishlash bilan bog'liq har qanday inson faoliyati sifatida qaraladi.

¹⁴ <https://rb.ru/opinion/ops-manager/>

¹⁵ <https://getcompass.ru/blog/posts/operacionnyy-menedzhment>

Paliyning (2008) ishlarida esa “Operatsion faoliyat tashkilotga asosiy daromad va asosiy pul oqimlarini olib keladi. Operatsion faoliyatga, shuningdek, investitsiya yoki moliyaviy jarayon bilan bog'liq bo'lmagan tashkilotning boshqa har qanday faoliyatini ham o'z ichiga oladi” – kabi yondashuvni ko'rishimiz mumkin.

Fomenko va Pleskevichlarning (2023) ta'rificha: “Operatsion faoliyatni boshqarish ishlab chiqarish jarayonlarini samarali boshqarish, mahsulot va xizmatlar sifatini nazorat qilish, xarajatlarni optimallashtirish va mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan bir qator tadbirlarni o'z ichiga oladi.”

“Operatsiyalarni boshqarish (OM) - bu kompaniyaning tovarlari va xizmatlarini ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan resurslarni rejalashtiradigan, tashkil etadigan, muvofiqlashtiradigan va boshqaradigan biznes funktsiyasi” singari qarashlarni Dan Reid R., Nada R. Sanderslarning (2012) ilmiy asarlarida uchratishimiz mumkin.

Xorijlik olimlar Slack, Nigellarning (2010) ilmiy izlanishlarida, operatsiyalarni boshqarish – bu mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqaradigan va yetkazib beradigan resurslarni boshqarish faoliyati ekanligi haqidagi fikr-mulohazalarni guvohi bo'lamiz.

Mashhur amerikalik iqtisodchi Erix Xelfert (2013) o'zining “Moliyaviy tahlil texnikasi”, “Biznes qiymatini yaratish yo'li” kabi ilmiy maqolalarida operatsion boshqaruvning mohiyatini asosiy boshqaruv funktsiyasi sifatida tavsiflaydi, uning natijalari tashkilotning tijorat muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi deydi.

Shuningdek Erix Xelfert (2013), operatsion boshqaruvning asosiy jihatlarini - mavjud bo'lgan barcha aktivlarning potentsialidan samarali foydalanish, yangi mahsulotlarni ishlab chiqish va yangi savdo bozorlarini rivojlantirish, narx siyosati nuqtai nazaridan raqobatbardoshlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va operatsion vositalarda ko'rish mumkin deydi. Shunday qilib, operatsion menejment katta va ko'p qirrali tushuncha ekanligi ayon bo'ladi va menejmentning o'ziga xos xususiyatlari ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyat elementlarini birlashtiradi.

Bizning fikrimizcha, “Operatsiyalarni boshqarish tizimi boshqa tashkiliy tizimlar va umuman ishlaydigan muhit bilan uzviy bog'liq bo'ladi. O'z navbatida bu muhit operatsion faoliyatga ikki yo'l – korxonaning funktsiyalarini bilvosita belgilaydigan va bevosita to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etuvchi omillar bilan ta'sir qilishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida olimlarning operatsion boshqaruv mazmun-mohiyatiga xos yondashuvlari o'rganildi va tegishli xulosalar shakllantirildi. O'rganilgan ma'lumotlar asosida kuzatish, umumlashtirish va mantiqiylik usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Operatsion faoliyatni boshqarish sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, operatsiyalarni boshqarish tizimi boshqa tashkiliy tizimlar va umuman ishlaydigan muhit bilan uzviy bog'liq bo'ldi. Bu o'z navbatida, faoliyatga ikki yo'l – tashkilotning funktsiyalarini bevosita belgilaydigan va bilvosita to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etuvchi omillar bilan ta'sir qilishi mumkinligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, tashqi muhit bilan o'zaro ta'sir turlarining har biri ma'lum bir xususiyatga ega bo'lgan o'ziga xos turdagi operatsiyalarni shakllantiradi.

1. Strategik – mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish usullarini, ofis va ishlab chiqarish binolarini, ishlab chiqarish quvvatlarini hududiy joylashishtirishni, jihozlarni joylashtirish sxemalarini ishlab chiqishni, ishlab chiqarish va xodimlarni har tomonlama tayyorlashni belgilaydi.


2. Taktik – ma'lum bir mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan resurslar miqdorini, ularga bo'lgan ehtiyojni, ishlab chiqarish jarayonlariga tashqi resurslarni jalb qilish rejalari va jadvallarini oldindan belgilaydi.

3. Operativ – operatsiyalarni rejalashtirish va boshqarish, shuningdek, har bir ish joyi

uchun mas'ul shaxslarni aniqlash, shu jumladan "aniq o'z vaqtida" operatsion tizimlarni boshqarish, ishlab chiqarish jihozlariga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha operatsiyalarni boshqarish bilan bog'liq.

Operatsion faoliyat korxonaning har qanday funktsiyalarini amalga oshirishni belgilaydi, muayyan mahsulotni ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish bilan bog'liq maqsadli harakatlarning mazmuni va ketma-ketligiga e'tibor beradi.

Operatsion menejment vazifasi bevosita birinchi chiziqli menejerlar, ya'ni tsex ustalari, bo'limlarning funktsional menejerlari (savdo bo'yicha menejerlar, moliyaviy faoliyatning ayrim funktsiyalari bo'yicha menejerlar, operativ rejalashtirish bo'yicha menejerlar) tomonidan amalga oshiriladi. Korxonalar boshqarish tizimidagi operatsion faoliyatni quyidagi rasm yordamida ifodalab o'tamiz.



1-rasm. Korxonani boshqarish tizimidagi operatsion faoliyat (Pivarov va boshq., 2011)

Operatsion muhit darajasi korxonaning umumiy muhitidan bir pog'ona pastroq ekanligini quyidagi rasm orqali ko'rishimiz mumkin. Uning tashqi muhitida yirik korxonaning biznes bo'linmalarining vazifalari - zarur resurslarni olish va mahsulot ishlab chiqarish bilan cheklangan bo'ladi. Ammo butun korxona faoliyatini tavsiflovchi sxemalardan farqli o'laroq, operatsion faoliyat korxonaning har bir funktsiyasining mazmuni va vaqti hatto, ushbu funktsiyaning ajralmas qismi bo'yicha eng batafsil tafsilotlar bilan bog'liq hisoblanadi (Dedajanov, 2022).

Tadqiqotlardan kelib chiqqan holda, korxonalarda operatsion faoliyat boshqaruvida amalga oshiriladigan ish(vazifa)larning yo'nalishlarini ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

1. Sifat menejmenti.
2. Mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish.
3. Jarayonlar va texnologiyalarni tanlash.
4. Ishlab chiqarishni joylashtirish.
5. Jihozlarni joylashtirish va ish joylarini tartibga solishni loyihalash.

6. Inson resurslari, mehnat faoliyatini loyihalashtirish.

7. Ta'minot zanjirini boshqarish.

8. Zahiralarini boshqarish, moddiy resurslarni rejalashtirish tizimlari - MRP (Material Resources Planning), JIT (Just in time).

9. Agregat (umumiy) va operatsion rejalashtirish hamda loyihalash.

10. Amaldagi operatsion tizimni qo'llab-quvvatlash uchun infratuzilma.

Shuningdek, korxona faoliyati sohalarida kesimida bir qator ishlar amalga oshirilib, ularni ham quyida ko'rsatib o'tishimiz mumkin. Masalan, dasturli boshqaruvga ega dastgohlar uchastkasi boshqaruvida quyidagi yo'nalishdagi vazifalar bajariladi:

– aniq miqdordagi mahsulotni belgilangan o'rtacha tannarx (yoki ichki tsex bahosi) bo'yicha standartlashtirilgan xom ashyo bilan ta'minlash;

– ishlab chiqarish jarayonini aniq tashkil etish, jihozlarni qayta sozlash va materiallarni yetkazib berishni ta'minlash;

– mahsulotlarning me'yoriy jihatdan yuqori sifatini ta'minlash;

– barcha ijrochilar tomonidan rejalashtirilgan ish jadvallarini o'z vaqtida bajarilishini aniq nazorat qilish. Ishchilarning shikoyatlari va mulohazalariga e'tibor berish. Shikoyatlarga, ularning murakkabligini hisobga olgan holda, bir yoki ikki smenada javoblar berish;

Savdo ishlari bo'yicha quyidagi yo'nalishdagi ishlar bajariladi:

– xaridorlarning so'rovlariga tezkorlik bilan yuqori darajada xizmat ko'rsatish;

– belgilangan mahsulot nomenklaturasini qat'iy belgilangan miqdorda, oldindan belgilangan narxda (sotish narxida), belgilangan miqdorda sotish hajmini ta'minlash;

– savdo agentlari o'rtasida amalga oshirish bo'yicha belgilangan umumiy topshiriqni taqsimlash, quyidagi qoidalarining bajarilishi va ularga amal qilishi ustidan nazoratni ta'minlash:

- kuniga bitta mijoz tashrifi; dekadada yoki oyda kamida bir marta yirik xaridorlar bilan muloqot o'rnatish (uchrashish).

Debitor qarzdorlik bo'yicha quyidagi yo'nalishdagi ishlar olib boriladi:

– bitim tuzilgandan keyin uch ish kuni ichida to'lov uchun hisob-kitob varaqlarini taqdim etish;

– bir ish kuni ichida yangi xaridorlarning kredit to'lash qobiliyati tekshiruvini o'tkazish;

– hisob-kitob to'lovlari kechiktirilmasligini ta'minlash;

– haftada bir marta o'z hisoblarini to'lamagan mijozlar bilan bog'lanish;

– o'z rahbariga dekadada bir marta ishonib topshirilgan faoliyat bo'limining to'lov holati to'g'risida tezkor ma'lumotlarni taqdim etish.

Shulardan kelib chiqan holda, operatsion menejerlarning vazifalari quyidagi yo'nalishlarda shakllantiriladi:

• iste'molchilar talablariga javob beradigan mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish;

• nazorat ostidagi resurslarni samarali boshqarish.

Operatsion faoliyatni boshqarishda operatsion menejerlar har kuni va har soatda yuzaga keladigan ko'plab muammolarni hal qilishlari kerak. Bu ularning ishining o'ziga xos belgilaridan biridir. Qiyinchiliklar iste'molchi manfaatdor bo'lgan tovarlarni kerakli miqdorda ishlab chiqarish uchun doimiy bosim bilan ta'sir qiladi. Operatsion menejerlar muammolarni reaktiv ravishda hal qiluvchi sifatida qabul qilinadi. Strategik boshqaruv sifatida operatsiyalarni boshqarish bo'yicha kamroq tarqalgan nuqtai nazar endi asossiz deb hisoblanadi (Dedajanov, 2022).

Xulosa va takliflar.

Operatsion menejment sohasidagi tadqiqotlar iqtisodiy tizimlarning rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega. Ular bizga yangi boshqaruv usullari va texnologiyalarini ishlab chiqish, jarayonlarni optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va korxonalar samaradorligini oshirish imkonini beradi. Ilmiy izlanishlarsiz operatsion boshqaruv qarorlari tajriba darajasida qoladi,

bu esa samarasizlik va yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Ilmiy tadqiqotlar muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun yechimlarni topish, shuningdek boshqaruvning yangi yondashuvlari va vositalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Shunday ekan har qanday biznes ertami kechmi operatsion boshqaruv jarayonidagi tadqiqotlarga va tahlillarga murojaat qiladi. Operatsion faoliyatni samarali boshqarish uchun quyidagilarni tavsiya etamiz:

- tajribalarda muvaffaqiyatli bo'lgan strategiyalarni ishlab chiqish. Shuningdek, bu yerda bevosita operatsion strategiya mantiqiy ravishda umumiy korxona strategiyasini ham inobatga olgan holda uyg'un ishlab chiqarish kerak;

- operatsion tizimlarni joriy etish. Joriy etish jarayonida muayyan operatsion tuzilma biznesning nima bilan shug'ullanayotganiga bog'liqlikda olib borilishi lozim;

- operatsion tizimni samarali boshqarish. Boshqaruvning asosiy mezonlari samaradorlik va ratsionallikdir. Samaradorlik daromadni oshirishga, mijozlar auditoriyasini kengaytirishga qaratilgan bo'lishi hamda xarajatlarni kamaytirish uchun zaxiralarni izlash lozim.

Odamlar bilan qanday munosabatda bo'lish yana bir muhim xususiyatdir. Operatsion jarayonlar korxonaning turli xil funktsional yo'nalishlarini bog'laydi: marketing, yuristlar, texnik yordam, biznesni rivojlantirish, moliya va boshqalar. Har kuni operatsion jarayonlarda boshqaruv bo'limlariga ma'lumotlarni beriladi va ulardan olinadi, bunda ishning yakuniy muvaffaqiyati operatsion munosabat, aloqa sifatiga bog'liq.

Adabiyotlar/Lumepamypa/Reference:

Dan Reid R., Nada R. Sanders. (2012) *Operations Management. An Integrated Approach Fourth Edition.* John Wiley & Sons, Inc. –p 808.

Dedajanov, B. N. (2022). *Menejment. Darslik.*–Toshkent.:“Fan ziyosi” nashriyoti, 580.

Slack, Nigel. (2010) *Operations management / Nigel Slack, Stuart Chambers, Robert Johnston.* – 6th ed.713 p.

Umarxodjayeva M.G., Ermatov T.Sh., Sulaymonov B.A. (2019) *Operatsion menejment: Darslik.* –T.: “Iqtisod-Moliya”,– 368 b.

Операционный менеджер: кто это и какие задачи в компании он решает? <https://rb.ru/opinion/ops-manager/>

Операционный менеджмент: как эффективно управлять бизнес-процессами. <https://getcompass.ru/blog/posts/operacionnyy-menedzhment>

Палий, В.Ф. (2008) *Международные стандарты учета и финансовой отчетности: учебник.* – 3-е изд., испр. и доп. / В.Ф. Палий. – М.: ИНФРА-М, – 512 с.

Пивоваров С. Э., Максимцев И. А., Рогова И. Н., Хутиева Е. С. (2011) *Операционный менеджмент: Учебник для вузов. Стандарт третьего поколения.* — СПб.: Питер, — 544 с.: ил. — (Серия «Учебник для вузов»).

Стерлигова А.Н., Фель А.В. (2009) *Операционный (производственный) менеджмент.* / Учеб. пособие. - М.: ИНФРА-М, – 187 с.

Фоменко Н.М., Плескевич В.Б. (2023) *Управление операционной деятельностью: опыт, тенденции, перспективы. Лидерство и менеджмент. Том 10. №3.* 975-985-с.

Хелферт Э. (2013) *Техника финансового анализа: Путь к созданию стоимости бизнеса.* / [Пер. с англ.] / Э.Хелферт. - 10-е изд. - Пб. и др. : Питер : Питер бук, . – 5–7 с.